


## Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2020- yil yanvar-dekabr (dastlabki ma ’lumot)

**Surxondaryo viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi yanvar-dekabr oylarida 2087,1 ming so‘mni tashkil etdi va buni viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Termiz shahrida 2615,7 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 125,7 %), Jarqo‘rg‘on tumanida 2532,8 ming so‘mni (121,4 %), Sariosiyo tumanida 2148,2 ming so‘mni (102,9 %), Bandixon tumanida 1958,5 ming so‘mni (93,8 %), Termiz tumanida 1899,4 ming so‘mni (91,0 %), Qumqo‘rg‘on tumanida 1908,1 ming so‘mni (91,4 %), Sherobod tumanida 1681,6 ming so‘m (80,6 % ) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.**

**Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi  
(viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)**





**Surxondaryo viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal  
hisoblangan ish haqi**

*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)*

	<b>2019- yil</b>	<b>2020- yil</b>	<b>O‘sish sur’ati, %</b>
<b>viloyat bo‘yicha jami:</b>	<b>1873,5</b>	<b>2087,1</b>	<b>111,4</b>
Termiz sh.	2325,0	2615,7	112,5
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	1605,9	1697,2	105,7
Angor	1609,9	1807,7	112,3
Bandixon		1958,5	
Boysun	1782,5	1863,5	104,5
Muzrabot	1687,9	1805,0	106,9
Denov	1677,1	1889,6	112,7
Jarqo‘rg‘on	2131,7	2532,8	118,8
Qumqo‘rg‘on	1779,3	1908,1	107,2
Qiziriq	1781,4	1815,1	101,9
Sariosiyo	1869,6	2148,2	114,9
Termiz	1738,1	1899,4	109,3
Uzun	1594,5	1818,5	114,0
Sherobod	1509,8	1681,6	111,4
Sho‘rchi	1651,8	1732,6	104,9

**Sanoatda** o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2626,7 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2019- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 14,3 % ga oshdi.



➤ **Qurilish sohasida** o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2920,3 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2019- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 15,1 % ga oshdi.

➤ **Savdo sohasida** o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2142,9 ming so‘mni tashkil qildi va 2019- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2,9 % ga oshdi.



➤ **Tashish va saqlashda** o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2938,4 ming so‘mni tashkil qildi va 2019- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 18,3 % ga oshdi.

- **Axborot va aloqa** sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2530,5 ming so‘m ga to‘g‘ri keldi va 2019- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 14,6 % ga oshdi.



- **Moliya va sug‘urta** faoliyati sohasida o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 4089,7 ming so‘nni tashkil qildi va 2019- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 13,0 % ga oshdi.

- **Ta’lim sohasida** o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1873,4 ming so‘nni tashkil qildi va 2019- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 6,6 % ga oshdi.



- **Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1783,6 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2019- yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 19,9 % ga oshdi.



- **San'at, ko'ngil ochish va dam olish** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1747,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2019- yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 96,4 % ga pasaydi.




- **Boshqa faoliyat turlari** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2107,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2019- yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 11,1 % ga oshdi.

- **2020- yil yanvar-dekabr oylarida Surxondaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2087,1 ming so'mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etgan.
- **O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 111.4 % ga o'sgan.**

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqinin iqtisodiy faoliyat turlari  
bo‘yicha taqsimlanishi**

(2020- yil yanvar-dekabr oylarida, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, )



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining  
Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan  
davr uchun belgilangan mehnat normasini  
va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning  
oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga  
haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi  
(2020- yil 1- fevraldan 679330,0 so'mni  
tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan  
oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi**  
**tel: (76) 225-65-60**